



Incitement to Give and Receive Bribes in Operational-Search Activities: A Legal and Ethical Analysis

Gafurov IKROMJON¹

Alfraganus university

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2025
Received in revised form
15 August 2025
Accepted 25 August 2025
Available online
15 September 2025

Keywords:

operational-search
activities,
incitement to give and
receive bribes,
corruption,
preventive measures,
provocation,
disciplinary liability.

ABSTRACT

This article analyzes the act of inciting bribery in operational-search activities from a legal perspective. The article examines the norms of criminal law and administrative liability. It also presents proposals for legal mechanisms to reduce the propensity for corruption in interactions between employees and citizens, as well as measures to prevent bribery. The research results include practical recommendations for increasing transparency in operational-search practices, strengthening disciplinary and criminal accountability, and implementing professional ethical standards.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss8/S-pp83-92>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tezkor-qidiruv faoliyatida pora berish va olishga undash: huquqiy va axloqiy tahlil

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

tezkor-qidiruv faoliyati,
pora berish va olishga
undash korrupsiya,
profilaktika choralar,
provokatsiya,
intizomiy javobgarlik.

Ushbu maqolada tezkor-qidiruv faoliyatida pora berish va olishga undash harakati huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqolada jinoyat huquqi va ma'muriy javobgarlik me'yorlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xodimlar va fuqaro o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan, korrupsiyaga moyillikni kamaytirish uchun huquqiy mexanizmlar porani oldini olish choralariga oid takliflar keltiriladi. Tadqiqot natijalari tezkor-qidiruv amaliyotida shaffoflikni oshirish, intizomiy va jinoiy javobgarlikni mustahkamlash hamda professional axloq normalarini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

¹ Senior Lecturer, Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan.

Содействие взяточничеству в оперативно-розыскной деятельности: правовой и этический анализ

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

оперативно-розыскная деятельность,
подстрекательство к
взяточничеству,
коррупция,
профилактические меры,
провокация,
дисциплинарная
ответственность..

В статье анализируется с правовой точки зрения деяние подстрекательства к взяточничеству в оперативно-розыскной деятельности. Рассматриваются нормы уголовного права и административная ответственность. Представлены предложения по мерам профилактики взяточничества, правовым механизмам взаимодействия сотрудников с гражданами, направленным на снижение уровня коррупции. Результаты исследования включают практические рекомендации по повышению прозрачности оперативно-розыскной деятельности, усилению дисциплинарной и уголовной ответственности, внедрению профессиональной этики.

Tezkor-qidiruv faoliyati jinoyatlarni aniqlash, oldini olish va fosh etish maqsadida maxsus vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladigan muhim huquqiy mexanizmdir. O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, mazkur faoliyat qonuniylik, inson huquqlari ustuvorligi va konspiratsiya prinsiplari asosida olib borilishi shart.[1] Biroq, amaliyotda ayrim holatlarda tezkor xodimlar tomonidan jinoyatni sun'iy ravishda yuzaga keltirish, ya'ni shaxsni pora berishga yoki olishga undash orqali uni jinoyatga jalb qilish holatlari uchrab turadi. Bu esa provokatsiya deb baholanadi va huquqiy jihatdan jiddiy muammo hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligiga qaraydigan bo'lsak, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2023-yilgi milliy ma'ruzasiga ko'ra, korrupsiyaga oid jinoyatlar soni 11 foizga kamaygan bo'lsa-da, moliyaviy qonunbuzilishlar miqdori 928,9 mlrd so'mga yetgan.[2] Agentlik tomonidan o'tkazilgan 60 ga yaqin o'rganishlar natijasida korrupsiya holatlari eng ko'p uchraydigan sohalar — davlat xaridlari, qurilish, ta'lim, sog'liqni saqlash va litsenziyalash tizimlari ekani aniqlangan.[3] Aynan shu sohalarida tezkor-qidiruv tadbirlarida pora berishga undash holatlari ko'proq uchrashi ehtimoli mavjud. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil mart oyidagi chiqishida korrupsiyani "davlatga ishonchga putur yetkazuvchi illat" deb atab, unga qarshi kurashda ochiqlik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarurligini ta'kidlagan. Bosh prokurorning 1-o'rinbosari Bahridin Valiyev esa so'nggi 4,5 yilda korrupsiya oqibatida davlatga 3,2 trillion so'm zarar yetkazilganini ma'lum qilgan.[4] Mazkur raqamlar tezkor-qidiruv faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashning muhimligini ko'rsatadi, ammo bu kurash qonuniylik doirasida bo'lishi shart. Xalqaro amaliyotda, xususan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC) jinoyatni sun'iy shakllantirishni tergov va sud jarayonlarining adolatiga tahdid sifatida baholaydi. Transparency International tashkilotining 2022-yilgi reytingida O'zbekiston 14 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa-da[5], korrupsiyaga oid xavf-xatarlar hali ham mavjud.

Shu bois, tezkor-qidiruv faoliyatida pora berishga undash holatlarini aniq huquqiy normalar bilan tartibga solish, provokatsiyani jinoyat deb belgilash va tergov organlari ustidan mustaqil nazoratni kuchaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, tezkor-qidiruv faoliyatida pora berish va olishga undash holatlari huquqiy jihatdan murakkab va xavfli hodisa bo'lib, bu holatlarni faqat milliy qonunchilik doirasida emas, balki xalqaro huquqiy standartlar asosida baholash zarur.

Respublikada jinoyatchilikka qarshi kurashishda jinoyatlarni isbotlashning zamonaviy usul va metodlarini qo'llash, tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanish, sohada "pora berish va olish"ni oldini olish, bunda jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va erkinliklari, shuningdek, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, muayyan turdagi jinoyatlarni tergov qilishning zamonaviy uslublarini rivojlantirish kabi muhim vazifalarning yechimi ustida ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bugungi kun amaliyotining obyektiv baholanishi va uning ehtiyojlarini hisobga olgan holda jinoyatlarni tergov qilishda tezkor-qidiruv imkoniyatlari, uning natijalaridan foydalanish institutini rivojlantirish, jinoiy ishlarni isbotlashda tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanish, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi asosida sud-huquq tizimini isloh qilish, shaxs huquq va erkinliklariga rioya etilishini hamda qonun ustuvorligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, javobgarlik muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.[6]

Poraxo'rlik bilan kurashish masalalari bugun nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham diqqat markazida bo'lgan illatdir. Zamonaviy dunyoda korrupsiya tahdidlarining umumbashariy xususiyati tufayli universal, xalqaro huquqiy standartlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Poraxo'rlik jinoyatlarida vositachilikning umumiy xavfi kam emas va ehtimol ko'proq ahamiyatga egadir. Chunki jinoiy tajovuzning bevosita obyektidan tashqari, u butun davlatga, davlat organlarining obro'siga, sud va huquqni muhofaza qilish tizimiga, shuningdek minglab vijdonli mansabdor shaxslarning, davlat xizmatchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishbilarmonlik obro'siga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazadi.

O'zbekiston Jinoyat kodeksining 210-moddasi pora olish, 211-moddasi esa pora berish jinoyatlarini belgilaydi. Mazkur moddalarga ko'ra, mansabdor shaxsning xizmat mavqeidan foydalanib moddiy manfaatdor bo'lishi yoki boshqa shaxsni bunga undashi jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.[7] Ammo tezkor-qidiruv faoliyatida pora berishga undash orqali jinoyatni sun'iy shakllantirish holatlari JKda bevosita ko'zda tutilmagan. Shu bois, bu holatlarni baholashda xalqaro huquqiy standartlarga murojaat qilish zarur bo'ladi.

Xalqaro amaliyotda, xususan, BMTning "Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi" (UNCAC) va OECD tavsiyalariga ko'ra, jinoyatni sun'iy shakllantirish, ya'ni provokatsiya orqali jinoyatga undash, tergov va sud jarayonlarining adolatli bo'lishiga tahdid soluvchi harakat sifatida baholanadi.[8] Pora berish va olishda vositachilik qilish, shuningdek, provokatsion usullar orqali jinoyatni yuzaga keltirish xalqaro huquqiy modelga zid ekani ta'kidlanadi.

Provokatsiya fenomeni inson jamiyati tarixida chuqur ildizlarga ega.

Xususan, L.Kolodkin Qadimgi Afina jamiyatni tartibga solish jarayonining salbiy oqibatlarini tahlil qilar ekan, Solon (miloddan avvalgi 640–559 yillar) islohotlaridan keyin yuzaga kelgan holatlarga e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, bu davrda suddagi adolatsizlik, zo'ravonlik va xabarchilar — ya'ni sikofantlik avj olgan⁹. "Sikofant" atamasi aslida "anjir daraxtini ko'rsatuvchi" ma'nosini anglatgan. Afina shahrida anjir mevasini eksport qilish taqiqlangan edi, chunki bu daraxt muqaddas hisoblangan va uning mevasi qamal yoki ocharchilik paytida strategik ozuqa sifatida saqlanishi kerak bo'lgan. Bu taqiqni buzish holatlarini fosh etish uchun maxsus kuzatuvchilar — sikofantlar

tayinlangan bo'lib, ular bunday qoidabuzarliklar haqida rasmiy xabar berishga majbur edilar. Vaqt o'tishi bilan "sikofant" so'zi kengroq ma'no kasb etib, har qanday jinoyat haqida xabar beruvchi shaxslarni anglatadigan bo'lib qoldi. Ular o'z xizmatlari uchun ayblangan shaxslardan musodara qilingan mol-mulkning ma'lum qismini olishar edi. Shu sababli, sikofantlar ko'pincha boy va mashhur shaxslarga qarshi provokatsiyalar uyushtirishdan tiyilmas edilar, chunki bunday holatlar ularga ko'proq moddiy manfaat keltirgan. Sikofantlardan jabr ko'rganlar orasida mashhur afinlik faylasuf Suqrot ham bor edi. U provokatsiya orqali "kramol" — ya'ni davlatga qarshi deb baholangan fikrlar bildirishga undalgan va natijada miloddan avvalgi 399 yilda o'lim jazosiga hukm qilingan.

Huquqiy tizimlarda "provokatsiya" tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Ushbu atama, odatda, shaxs yoki tashkilot tomonidan boshqa bir shaxsni yoki davlatni ongli ravishda salbiy harakatga undash, uni jazoga tortish yoki siyosiy, ijtimoiy muhitni beqarorlashtirish maqsadida amalga oshirilgan harakat sifatida tushuniladi. Provokatsiya huquqiy, siyosiy va psixologik kontekstda murakkab hodisa bo'lib, uning talqini har bir davlatning huquqiy tizimi va xalqaro huquq normalariga ko'ra farqlanadi.

O'zbekiston huquqiy tizimida "provokatsiya" tushunchasi aniq huquqiy ta'rifga ega bo'lmasa-da, u jinoyat huquqi doirasida jinoyat sodir etishga undash yoki shaxsni ayblash uchun sun'iy vaziyat yaratish sifatida ko'riladi. Masalan, pora berishga yoki olishga majbur qilish orqali shaxsni jinoyatga jalb qilish holatlari provokatsiya sifatida baholanadi. O'zbekiston huquqshunoslari, jumladan, professor A.Saidov provokatsiyani xalqaro huquq kontekstida ham tahlil qilib, uni davlatlar o'rtasidagi mojarolarni sun'iy ravishda kuchaytirish vositasi sifatida ko'radi.[9]

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksida esa provokatsiya aniq belgilangan jinoyat sifatida ko'rsatilgan.

Xususan, JKning 304-moddasida pora berishga provokatsiya qilish jinoyat deb e'tirof etiladi. Rossiya huquqshunoslari A.V.Dmitriev va A.A.Sychyov provokatsiyani ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida ko'rib, uni shaxsning ongli ravishda boshqalarni jinoyatga undashi deb ta'riflaydi.[10] Rossiyada provokatsiya holatlarini aniqlashda sud-psixologik va lingvistik ekspertizalar keng qo'llaniladi, bu esa provokatsiyaning murakkab psixologik jihatlarini aniqlashga yordam beradi.

Xalqaro huquqda esa provokatsiya ko'proq harbiy mojarolar va xalqaro nizolar kontekstida muhokama qilinadi. BMT nizomining 2-moddasiga ko'ra, har qanday davlat tomonidan boshqa davlatga nisbatan tajovuzkor harakatlar, jumladan, provokatsion harbiy harakatlar, xalqaro tinchlikka tahdid sifatida baholanadi.

Xorijiy ekspert Elijah Magnie provokatsiyani geosiyosiy vosita sifatida baholab, uni davlatlar tomonidan mojarolarni keltirib chiqarish uchun ishlatiladigan strategik usul deb ta'riflaydi. Sovet davrida KGB tomonidan provokatsiya usullari (dezinformatsiya, infiltratsiya) keng qo'llanilgan bo'lib, bu holatlar xalqaro huquqda maxsus e'tiborga olingan. Umumiy aytganda, provokatsiya tushunchasi har bir huquqiy tizimda o'ziga xos talqinga ega. O'zbekiston va Rossiya huquqida u ko'proq jinoyatga undash shaklida ko'rilsa, xalqaro huquqda esa provokatsiya tinchlikka tahdid soluvchi harbiy yoki siyosiy harakat sifatida baholanadi. Xorijiy olimlarning fikrlari bu tushunchaning murakkabligini va ko'p qirrali mohiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Provokatsiyani huquqiy jihatdan to'g'ri baholash, adolatli sudlov va xalqaro tinchlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tezkor-qidiruv faoliyati jamiyatning xavfsizligini ta'minlashda, jinoyatlarni tezda aniqlash va oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, bu soha vakillarining vakolatlari va tezkor qaror qabul qilish imkoniyatlari korrupsiya uchun oson imkoniyatlar yaratadi. Maqolaning maqsadi pora berish va olishga undash hodisasini

huquqiy va axloqiy jihatdan tahlil qilib, muammo manbalari va uni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatishdir.

Tezkor-qidiruv organlari har doim shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lib, ma'lumot yig'ish, tintuv o'tkazish, vaqtincha ushlar kabi amaliyotlarni amalga oshiradi. Bunday vaziyatlarda ma'muriy suverenitet va favqulodda sharoitlar xodimlarga qarorlarni tez qabul qilishga majbur qiladi, bu esa nazoratni zaiflashtirishi va xo'jayinlik tusini keltirib chiqaradi. Xodimlarning mustaqil qarorlari tartibga solinmasa, pora berish va olishga bo'lgan undash osonroq paydo bo'ladi. Pora berish va olishga undash ko'pincha ochiq talablar orqali emas, balki bilvosita signallar, qarorlarni bo'yash, xizmatlar almashinuvi yoki hokimiyatni suiiste'mol qilish orqali namoyon bo'ladi.

Tezkor-qidiruv jarayonida jabrdiyda yoki guvohlarda bosim qo'llash, tergov hujjatlarini o'zgartirish yoki ma'lumotlarni yashirish kabi xatti-harakatlar jinoyat yoki ma'muriy javobgarlikka olib keluvchi holatlarga sabab bo'ladi. Huquqiy nuqtai nazardan pora berish va olish har qanday holatda ham noqonuniy hisoblanadi hamda jinoyat va ma'muriy qonunchilikka binoan jazo choralari qo'llaniladi. Rang-barang mamlakatlarda mavjud tajribalar shuni ko'rsatadiki, qat'iy qonunchilik, mustaqil sud amaliyoti va samarali tergov organlari bo'lmasa, qonuniy normalar asosan deklarativ xarakterga ega bo'ladi. Shuning uchun qonunlarni amalda tatbiq etish, dalillarga asoslangan tergov va oshkora sud jarayonlari juda muhimdir.

Yaxshi bilamizki, pora bilan bog'liq holatlar asosan 3 xil ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Pora olish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi - jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Pora berish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsiga mazkur mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish - jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Basharti, shaxsga nisbatan pora so'rab tovlamachilik qilingan bo'lsa va ushbu shaxs jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda 30 sutka mobaynida o'z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo'lsa, u javobgarlikdan ozod etiladi.

Pora olish-berishda vositachilik qilish, ya'ni pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek manfaatdor shaxslarning topshirig'i bilan porani bevosita berish jarima yoki ozodlikni cheklash yoxud ma'lum yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Axloqiy nuqtai nazardan tezkor-qidiruv xodimlarining professional yondashuvi ularning jamiyat oldidagi majburiyatini anglashiga bog'liq. Pora olish va berishga undash nafaqat qonunni buzadi, balki inson huquqlari va adolat tamoyillarini ham yo'qotadi. Xodimlarning axloqiy intizomi buzilganda, ularning qarorlariga ishonch susayadi va umumiy huquq tizimining legimitatsiyasi zaiflashadi.

Muammo manbalari ko'p qirrali: past maosh, kadrlarimizdagi malaka va motivatsiya yetishmasligi, ichki nazorat tizimining zaifligi, yetarli tashkiliy himoya va

shikoyat yo'llarining yo'qligi. Shuningdek, qonunlardagi kongruentlikning yo'qligi va xodimlar vakolatlarining noaniqligi ham korrupsiyaga turtki beradi.

Jamiyatdagi korrupsiyaga nisbatan bosim va norozilik ham jabrlanuvchilarning qarorlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Pora berish va olishga undashning oqibatlari jiddiy: tergov natijalarining ishonchliligi shubha ostiga olinadi, jinoyatchilar qat'iy jazodan qochib qoladi, gumon qilingan shaxslarga nisbatan suiiste'mol holatlari ko'payadi va shu bilan birga jamiyatda adolat g'oyasiga bo'lgan ishonch susayadi. Bu esa davlat institutlariga nisbatan norozilikni kuchaytiradi hamda umumiy huquqiy tartib uchun tahdid tug'diradi.

Oldini olish choralarda huquqiy mexanizmlar, masalan, qat'iyroq jazo, mustaqil audit va ichki tekshiruvlar, tezkor tergovlar va raqamlashtirish samarali bo'ladi. Ma'lumotlarni elektronlashtirish, operativ harakatlar yozuvini saqlash, kameralarga ega bo'lish va shaffof hujjat aylanishi korrupsiya imkoniyatlarini kamaytiradi.

Qonun ijrosining barqarorligi va sud amaliyotining mustaqilligi ham muhim omillardir. Axloqiy profilaktika ham bir xil darajada zarur. Xodimlarni muntazam axloqiy va huquqiy ta'limdan o'tkazish, oddiy xodimlar uchun ham shikoyat va himoya mexanizmlarini joriy etish, murakkab vaziyatlarda maslahat hamda psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini tashkil etish lozim.

Shuningdek, rahbarlarning shaxsiy mas'uliyati va namunaviy xulq-atvori muhitni o'zgartirishda katta rol o'ynaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro standartlari ko'p tomonlama xalqaro shartnomalar bilan belgilanadi. O'zbekiston ayni damda BMTning "Korrupsiyaga qarshi kurashish Konvensiyasi" va "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi" a'zosi hisoblanadi.

Ushbu hujjatlar poraxo'rlik jinoyatlari, umuman olganda, korrupsiya uchun jinoiy javobgarlikning umumiy majburiy standartlarini belgilaydi, korrupsiyaga qarshi kurashishning ko'p tarmoqli yondashuvi doirasida asosiy tarkibiy qism hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro standartlari sifatida xalqaro shartnomada rasman mustahkamlangan normalarni hisobga olish zarur, ularga ko'ra milliy qonunchilikning barcha tartibga soluvchi talablari bajarilishi kerak.

Dunyoda korrupsiyaga qarshi xalqaro standartlarni o'rnatish nuqtai nazaridan asosiy, asosiy hujjat BMTning "Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi" - dunyoning 186 davlatini birlashtirgan universal xalqaro shartnomadir. Dunyoning aksariyat davlatlari BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida ishtirok etayotganligi sababli uning qoidalari umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalari xarakteriga ega va O'zbekiston unga qo'shilgan holda milliy qonunchiligini talablarga muvofiqlashtirish majburiyatini o'z zimmasiga oldi.[11] Porani berish yoki olishni tashkillashtiruvchi, bunga yo'naltirilgan turli xil faoliyat yurituvchi yoki bo'lmasa pora berish yoki olishda yordamchi bo'lgan va bir vaqtning o'zida vositachilik harakatlarini bajargan shaxs pora berish yoki olishda ishtirokchilikda javobgar bo'ladi. Bu o'rinda ishtirokchining harakatini tavsiflash masalasi u kimning manfaatini, kim tomonidan va kimning pora beruvchiningmi yoki oluvchining tashabbusi bilan harakat qilganidan kelib chiqib, uning qasdi nimaga qaratilganligini hisobga olgan holda hal qilish lozim bo'ladi. Bu norma yuzasidan vositachilarning roli barcha mansabdor shaxslar o'rtasida korrupsion jinoyatlarning amalga oshirilishida misoli bir "ko'prik" vazifasini bajaruvchi, ularning jinoiy qilmishlarini oson va yashirin tarzda amalga oshirilishini ta'minlab turadigan mustaqil shaxs sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etish va

korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish muhitini shakllantirish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda, xususan, korruptsiya jinoyatlar uchun javobgarlik og'irlashtirilgani ham ayni fikrimiz dalilidir. Mamlakatimizning rivojlanishining bugungi bosqichida korruptsiya davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biri ekanligi qayd etilib kelinmoqda. Davlat organlari tomonidan Korruptsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish va unga qarshi ayovsiz kurashish barcha darajadagi davlat organlari rahbar va xodimlarining eng ustuvor vazifasi etib belgilandi.

Hozirgi vaqtda, korruptsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas'ul bo'lgan alohida organ — Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Davlat hokimiyati organlari va yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarda korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Bosh prokuratura, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Ichki ishlar vazirligi tomonidan korruptsiyaning har qanday ko'rinishlariga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta'minlash uchun barcha kuch va vositalarni safarbar etilib kelinmoqda. Korruptsiyani oldini olishga bo'lgan urinishlar har tomonlama puxta ishlab chiqilishi, bunda aholining milliy mentaliteti, siyosiy madaniyati, ijro etuvchi hokimiyat organlari ustidan nazoratni amalga oshiruvchi fuqarolik institutlarining rivojlanganlik darajasini ham qamrab olinishi lozim. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2003-yil 21-noyabrdagi rezolyutsiyasiga muvofiq, 2004-yildan boshlab "9-dekabr – Butunjahon korruptsiyaga qarshi kurashish kuni" sifatida nishonlanishi ham bejiz emas.[12] Toshkentda o'tkazilgan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro konferensiyada, ishtirokchilarni yuksak xalqaro mukofotlar bilan taqdirlash marosimida davlatimiz rahbari nutq so'zladi va korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Prezidentimiz o'z nutqida "Korruptsiya butun insoniyatga, barcha jamiyatlar asosiga, iqtisodiy taraqqiyotga zarba beradigan, qonun ustuvorligini buzadigan va xalqning davlat siyosatiga ishonchini keskin susaytiradigan, demokratik institutlar rivojiga to'sqinlik qiladigan xatarli tahdiddir va u barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasidagi rejalarimizga ham jiddiy putur yetkazadi" dedilar. Bundan tashqari davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham Korruptsiya jamiyatimiz rivojiga g'ov bo'layotgan eng katta illat ekanligi, shuningdek, "Korruptsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korruptsiyaning oqibatlarini bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak"[13], deb ta'kidladilar.

Ta'kidlash joizki, korruptsiya bu shunday illatki – u chegara bilmaydi, u butun dunyo mamlakatlarini doimiy e'tiborida turadi. Birorta mamlakat men korruptsiyadan butunlay xoliman, deb ayta olmaydi. Zero, korruptsiya mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotida qator salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi.

Xususan, bu siyosiy sohada umummilliy manfaatdan, ayrim guruhlar manfaatini yuqori qo'yilishi, xalqning davlatga ishonchi pasayishi, demokratik prinsiplar yo'qolishi, qonun ustuvorligi buzilishi, sudlar faoliyatining samarasizligida ko'rinadi. Korruptsiya – bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazibgina qolmay, inson huquqlari buzilishiga, moliyaviy bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qilinishiga, har bir jabha taraqqiyotini sekinlashishiga va jamiyat xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib ketishiga sharoit yaratib berishi hammamizga kundek ravshandir. Korruptsiyaga qarshi kurashish har bir fuqaroning,

ichki axloqiy-ruhiy maslagi va e'tiqodiga aylanishi kerakki, bu korrupsiyaga qarshi ma'rifatning o'zagini tashkil qiladi.[14] Iqtisodiy sohada esa investitsion muhitning buzilishi, kichik biznesning zarar ko'rish, davlat resurslarining maqsadsiz taqsimlanishi, narxlarning soxta oshirib ko'rsatilishi, moliyaviy, iqtisodiy xavfning oshishi, yashirin iqtisodiyot, iqtisodiy raqobatning pasayishiga olib keladi. Lekin, afsuski ayni paytda milliy qonunchiligimizda korrupsion jinoyatlar toifalari aniq emas. Biz ko'pincha pora berish va pora olish, va shu kabi boshqa jinoyatlarni korrupsion jinoyat deb kelamiz.

Vaholanki, yuqorida sanab o'tilganidek to'g'ridan-to'g'ri moddiy manfaatdorlik bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar ham korrupsion bo'lishi mumkin. Hozirgi globallashuv davrida yoki jarayonida korrupsiya muammosi jahonning deyarli har bir mamlakatida mavjudligini ko'rish mumkin. Ammo bu – barcha davlatlarda ham korrupsiya bir xil degan ma'noni anglatmaydi. Ekspertlarning xulosasiga ko'ra, korrupsiyaning vujudga kelish sabablari turli mamlakatlarda turli xil bo'lib, tarixiy rivojlanish bosqichi hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning mavjudligi hamda taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi.

Rivojlangan demokratik davlatlar, jumladan, Singapur, Shvetsiya, Finlyandiya davlat islohotlarini aynan mazkur illat – korrupsiyani ildiziga bolta urish bilan boshlaganligi va bu borada tizimli ravishda ish olib borishni o'zlarining asosiy vazifalari deb belgilaganligi uchungina jahonda korrupsiya darajasini o'rganuvchi "Transparency International" tashkilotining korrupsiyaning yo'qlik indeksida har doim yuqori pog'onalarida turishini ta'minlaydi.[15]

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab oldi. Ayniqsa, tezkor-qidiruv faoliyatida pora berish va olishga undash holatlarini oldini olish masalasi alohida e'tiborga olinmoqda. Chunki bu soha fuqarolarning huquq va erkinliklariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim mexanizmdir.

Avvalo, qonunchilik bazasi mustahkamlanmoqda. "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonun va unga kiritilgan o'zgartirishlar orqali faqat maxsus vakolatli organlarga bu faoliyatni yuritish huquqi berilgan. Bu esa noqonuniy aralashuvlar va vakolatsiz shaxslar tomonidan pora olishga undash holatlarini cheklashga xizmat qiladi. Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksdagi atamalar birxillashtirilib, huquqiy aniqlik ta'minlandi.

Prokurorlik nazorati tizimi kuchaytirilgani ham muhim omil bo'ldi. Endilikda tezkor-qidiruv tadbirlari ustidan prokurorlar doimiy nazorat olib boradi. Bu xodimlarning harakatlarini qonuniylik mezonlari asosida baholash imkonini beradi.

Ichki nazorat bo'limlari esa xodimlarning etik me'yorlarga rioya etishini ta'minlab, pora olishga undash holatlarini aniqlashda faol ishtirok etmoqda.

Bundan tashqari, xodimlar uchun maxsus etik kodekslar joriy etilgan va muntazam treninglar tashkil etilmoqda. Bu treninglarda korrupsiyaga qarshi kurash, inson huquqlari, shaffoflik va javobgarlik masalalari muhokama qilinadi. Fuqarolarning murojaatlari asosida o'tkaziladigan tekshiruvlar esa jamoatchilik nazoratini kuchaytirib, tizimning ochiqqligini ta'minlaydi.[16]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki, tezkor qidiruv faoliyatida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabablarni o'rganish orqali uning sodir etilish mexanizmlarini aniqlash va korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini amalga oshirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

birinchidan, davlat amaldorlari va muassasalari halolligini saqlash va bunga imkoniyat yaratish maqsadida, nafaqat korxona, muassasa, tashkilot doirasida, balki uning tashqarisida ham xodimlarning taqiqlangan xulq-atvor ko'rinishlarini namoyon

etadigan, korrupsiya harakatlarining turli shakllarini aniq belgilaydigan Xulq-atvor kodeksini joriy etish zarur. Xulq-atvor kodeksi buzilgan hollarda xodimlarni javobgarlikka tortish imkonini beruvchi xulq-atvor sanksiyalari turlarining qat'iy tartibini belgilash, Xulq-atvor kodeksiga zid bo'lgan vaziyat mavjudligi to'g'risida axborot yig'ishga yordam beruvchi xabarchi-xodim himoyasini kafolatlaydigan, xabar qilishning ichki anonim tizimini belgilash, tashkilot yoki korxonada korrupsiyaga moyil bo'lgan sohalarni aniqlash asosida tarmoqlar kesimida korrupsiyaga oid xaritalarni tuzish kabi mexanizmlarni joriy etish ko'zda tutiladi;

ikkinchidan, korrupsiya bilan bog'lik huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilgan shaxslarni va ularning yaqin qarindoshlarini mansab lavozimlariga tayinlamaslik amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Mansab etikasini buzganligiga nisbatan javobgarlikning belgilanganligini nazarda tutgan holda mansabdor shaxslarning huquq va majburiyatlari tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi;

uchinchidan, respublika miqyosida, hududlar va alohida bo'limlarda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga mas'ul bo'lgan mutaxassislarni tayyorlovchi, ularning maxsus bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlovchi, mansabdor shaxslarga korrupsiyaning zararli oqibatlarini tushuntiruvchi muntazam ravishda majburiy o'qitish uchun ta'lim tizimini yaratish lozim;

to'rtinchidan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, shuningdek, korrupsiya omillarini aniqlash, korrupsiya xavf-xatarlarini boshqarish va ularni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish borasida oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga "Korrupsiyaga qarshi xulq-atvor standartlari" fanini joriy etilishi aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://lex.uz/docs/-2107763>.
2. <https://kun.uz/news/2024/03/26/korrupsiyaga-oid-jinoyat-sodir-etganlar-soni-qaysi-hududlarda-oshgani-malum-boldi#!>.
3. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uzbekistondagi-korrupsiya-xavfi-bulgan-sohalar>.
4. <https://daryo.uz/content/post?year=2021&month=07&day=09&slug=bosh-prokuror-orinbosari-otgan-45-yilda-korrupsiya-oqibatida-davlat-va-fuqarolar-manfaatiga-qancha-zarar-yetganini-malum-qildi>.
5. <https://lex.uz/uz/docs/-6767825>.
6. <https://lex.uz/docs/-5841063>.
7. <https://gov.uz/advice/549/document/2318>.
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/pora-olish-berishda-vositachilik-qilish-jinoyati-javobgarligi-yuzasidan-xalqaro-standartlar>.
9. Колодкин Л. Яумру, когда яд дойдет до сердца // Человек и закон. 1993. № 8. С 87.
10. Akmal, S. (2025). Legal Evolution of Human Rights Protection in Uzbekistan Amid Digital Transformation. Legal Issues in the digital Age, (1), 53-82.
11. Дмитриев, А. В., & Сычев, А. А. (2017). Провокатсия: социофилософские очерки. ООО «Центр социального прогнозирования и маркетинга».
12. Birlashgan Millatlar tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasiga (Nyu-York, 2003- yil 31-oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.07.2008 yildagi O'RQ-158-son.

13. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2008/03/as-set-recovery-and-mutual-legal-assistance-in-asia-and-the-pacific_g1ghcd5e/9789264086005-en.pdf.
14. <http://portal.guldu.uz/download-edfiles-22051.doc>.
15. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar profilaktikasi: O'quv qo'llanma / I.Ismoilov, J.S.Muxtorov, S.B.Xujakulov; mas'ul muxarrir yu.f.d., prof. KRAbdurasulova. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. - 42
16. Sandjarovich, S. S. (2025). TEZKOR-QIDIRUV TADIRLARINING JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDAGI AHAMIYATI. Global Science Review, 1(1), 167-173.
17. Furqat o'g'li, K. U. (2025). TEKSHIRISH UCHUN XARID QILISH VA NAZORAT OSTIDA O'LIH TEZKOR QIDIRUV TADBIRLARI O'TKAZISHNI TASHKIL ETISH. Global Science Review, 4(1), 200-204.